

## O'RTA OSIYONING CHOR ROSSIYASI BOSHQARUVI DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI

**Turdiyev Sarvarbek**

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, Chor Rossiyasi, Turkiston, Tajovuzkorlik, Siyosat, Protektorat, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, vassal, Qo'qon xonligi, Samarqand, amir, urush, podsho, Farg'ona.

### Annotation

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xalqlarining Rossiya imperiyasi tarkibiga kuch bilan qo'shib olinishi va mustaqil bo'lgan uch davlatning hududi va aholisini bo'yshindirish uchun olib borilgan yirik bosqinchilik urushlari va qirg'inlari tahlil qilingan. Rossiya imperiyasining Turkistondagi generallari tomonidan boshqaruvning harbiy usullaridan keng ko'lama foydalanishi va O'rta Osiyo xalqlariga o'tqazgan jabr-zulmi, insoniylikka to'g'ri kelmaydigan vaxshiyliklarini ochib berish va zulumkor bosqinchi davlat sifatida o'zini nomoyon etganligi tarixda o'z tasdig'ini topgan. Ammo bu imperiya o'zini dunyoning boshqa mamlakatlari oldida o'z yovuzligini yashirish uchun soxta shartnomalar imzolatib, hududiy shaharlarni aholi tinch yo'l bilan topshirganday qilib ko'rsatuvchi shartnomalar va sulhlar bilan berkitmoqchi bo'ldi. O'rta Osiyoga tajovuskor siyosati tufayli bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan xalqlarni bir qismini yo'q qilish va qolganini arzon ishchi ya'ni qul darajasigacha olib chiqish ular siyosatining asosini tashkil etar edi. Imperiya davrida xalqimiz va birodar xalqlar juda katta yo'qotishlarga uchradi, ular ham ma'naviy, ham jismonan kamsitildi va ezildi. Chor Rossiyasi bosib olgan O'rta Osiyo xalqlarini qurquv, ochlik va zulum bilan uziga tobe qildi. Bu esa O'rta Osiyo xalqlari tarixi uchun uchmas zulum va shavqatsizlik sifatida doim yodida tarixida eslanadi va qoralanadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2023 LWAB.

### KIRISH

Podsho Rossiyasi davrida O'rta Osiyo davlatchiligining tugatilishi hamda Rossiya tarkibiga kuch bilan qo'shib olingan hudud aholisiga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'linishi, o'lka boshqaruvini o'z qo'llariga olgan harbiylarning ko'plab begunoh aholini qirib yuborishi imperianing naqadar shavqatsizligiga yaqqol misol bo'ladi.

Bugungi davrda o'zbek xalqining tarixini tiklash, uni o'rganish uchun davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan foydalanmoqdamiz. Akademik va professor ustozlar, fan arboblari tarixni oydinlashtirish ishlarini olib borishmoqda. Tarixning ochiqlanmagan qismlari ustida tadqiqotlar olib borilyapti. Tariximizni bir qismi bo'lgan xalqimiz taqdirini o'zgartirib yuborgan mustamlakachilik davrini ham yoritish, tahlil qilish ishlarini olib borilmoqda. Podsho Rossiyasi O'rta Osivoni qanday bo'ysundirganligi, hududni egallashdagi qirg'inbarot bosqinchilik urushi, xalqimiz taqdirini

o'zgartiribgina qolmay, xalqimiz boshiga ulkan musibatni ham olib keldi.

## METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy mantiqy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda O'rta Osiyon Rossiya imperiyasi bosib olishi, undagi siyosiy-iqtisodiy ahvol, qisqa qilib aytganda, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi bosqinchiligi va mustamlakachilik siyosati tarixiy manbalart asosida tahlil qilindi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Rossiya hukumati O'rta Osiyo hududlarini bosib olishdan ko'proq manfaatdor bo'lib, bu manfaatdorlik bosqinchilik harakatlarini tezlashtirishga undar edi. Olimlarning fikirlariga ko'ra, quyidagi sabablar Rossianing O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishini tezlashtirgan.

Birinchidan, Rossiya yengil sanoat tarmog'ini arzon xom-ashyo bilan ta'minlab berish.

Ikkinchidan, Qirm urushidagi mag'lubiyati o'rmini O'rta Osiyo xonliklarini egalash hisobiga to'ldirish. O'rta Osiyo orqali Eron, Afg'oniston, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda Angliyaning ta'sirini yo'qotib, bu davlarlar bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatish.

Uchinchidan, Rossianing sifati haminqadar bo'lgan mahsulotlarini O'rta Osiyo bozorlarida qimmat narxda pullash.

To'rtinchidan, Rossiyada hukmron pomeshchik yer egaligi tufayli qashshoqlashib qolgan rus aholisini ko'chirib keltirish hamda ularni yer-suv bilan ta'minlash.

Shuningdek, Angliyaning xonliklar bozorlariga intilishi Rossiyani tashvishga sola boshlagan edi [1]. Rossiya davlatining hukmron doiralari uchun Qo'qon va Xiva xonliklari va Buxoro amirligini istilo etish ruhi ustun edi. Shu sababdan, Turkistonni bosib olish masalasi rus podshosi Aleksandr II tomonidan 1859-yil va 1861-yillardagi saroy kengashida muhokama qilinadi hamda Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi. Qo'qon xonligiga qarshi urush harakatlarini boshlash taklifini graf Ignatev ilgari surgan bo'lib, unga ko'ra, Rossiya 1860-yilda Qo'qon xonligiga qarshi e'lon qilinmagan urushni boshladi (2).

Orenburg general-gubernatori V. A. Perovskiy qo'shinlari 1853-yilda Qo'qon xonligi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan Oqmachitni (hoz. Qizil o'rda) egalladi. Qrim urushi tufayli to'xtab qolgan harbiy harakatlar 1860-yilning yozida yana jonlanib, polkovnik Simmerman boshchiligidagi qo'shinlar To'qmoq, Pishpak (hoz. Bishkek) qal'alarini egalladilar. Bu Qo'qon xonligini yerlarini surbetlarcha o'z tarkibiga qo'shib olishdan boshqa narsa emas edi [1].

1864-yilning may oyida Verniy qalasidan yo'lga chiqqan polkovnik Chernyayev Avliyoota, Suzoq qal'alarini, shu yilning iyul oyida Turkiston shahrini bosib oldi. Shundan so'ng Chimkent shahrini qamal qildi, ammo bu yerda Qo'qon amirlashkari Alimqulining qarshiligiga duch kelishdi.

1964-yil 22-sentyabrda rus qo'shinlari Chimkentni egallahdi. 1864-yilning oktyabrida ruslar keyingi bosqinni Toshkentga qaratishdi, ammo Darvishak qopqa degan joyda mag'lubiyatga uchrab ortga chekinishdi. Mag'lubiyatdan so'ng Cherniyayev 1864-1865-yillar oralig'ida yana urushga tayyorlandi. Cherniyayevga Sibir va Orenburgdan qurol aslaha va qushimcha kuch jo'natildi. Cherniyayev 1865-yil 28-aprelda Chirchiq daryosi buyidagi Niyozbek qal'asini egalladi va tug'oni buzib Toshkentni suvdan uzib qo'ydi. Bu vaqtida Qo'qondan yo'lga chiqan Alimqul 8-may kuni yetib keldi va 9-may kuni ruslarga qarshi jangga kirdi. Ammo jang payti Alimqul yaralandi va halok bo'ldi. Bu esa aholi o'rtasida sarosima paydo bo'lishiga olib keldi[4].

Toshkent mudofaasi uchun aholi va askarlar ruslarga qarshi qatiq qarshilik ko'rsatishdi, ammo texnik jihatdan ustun bulgan dushman 1865-yil 15-iyun kuni Toshkentni zabit etishdi. Toshkentni bosib olinishi xonliklar taqdirini salbiy tomonga o'zgartirib yubordi. Endilikda ruslar Toshkentni tayanch

qilib xonliklar yerlarini zabit etishga kirishdilar[2]. Lekin shunday xafli bir payta ham xon va amirlar birlashib ish tutish uyoqda tursun bir birlariga yordam ham bermadilar bu esa ruslarga qo'l keldi.

XIX asrning birinchi yarimiga kelib, O'rta Osiyoda uch xonlik o'rtasidagi tuxtovsiz urushlar, kelishmovchiliklar xonliklardagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tang axvolga olib keldi, bu hududlardagi madaniy xayotni izdan chiqardi. Ulkadagi bunday vaziyat Rossiyadek bosqinchi davlat uchun o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga qulay sharoit yaratdi[2].

XIX asr urtalarida jahoning yirik davlatlari o'tasida yangi mustamlakalar uchun kurash qizib ketgan davrda Chor Rossiyasi xam bu kurashdan chetda qolmadi. Shu jihatdan XIX asr urtalarida Angliya va Rossiyaning manfaatlari Turkistonda tuqnashdi. Rossiya siyosatchilari Angiliyaning Turkiston va Kaspiy dengizining sharqiy tomonlarini egallab olishidan g'oyat xafsrayotgan edi. Bunga asos ham bor edi. Chunki Angliya uz tasarrufidagi Hindiston va Afg'oniston orqali o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqalar olib borar edi. Angliyaning asosiy maqsadi xonliklarni bosib olishga chog'lanayotgan Rossiyaning rejalarini barbob qilish, uchala xonlikni unga qarshi bir kuch qilib birlashtirish va O'rta Osiyo bozorini egallah edi. Ammo Angliyaning bu maqsadi amalga oshmadidi. Bunga asosiy sabab Angliyaning xonliklarni ittifoqqa ishontira olmagani xonlarni esa bir birlar bilan ittifoq bulishi juda mushkul vazifa edi, Rossiyaga ham bunday ittifoq kerak emas edi. Rossiyani asosiy maqsadi xonliklarni bir biri bilan urushtirish va zaiflashtirish bulgan[2]. Rossiya uchun bu maqsadga erish uncha qiyin bo'lmasdi, u dastlab Buxoro hujumlaridan zaiflashtib qolgan Qo'qon xonligiga uz etiborini qaratadi va yuqorida aytib o'tganimizdek dastlab Oqmachit Turkiston Chimkent Avliyoota kabi yirik shaharlarni zabit etdi. Bu shaharlar O'rta Osiyoning eng aholosi ko'p bulgan yirik markaz Toshkentni olinishi uchun tayanch bulib xizmat qildi. Bu esa oxir oqibat Qo'qon xonligini tugatilishiga yani Qo'qon xonligini tarixini tubdan o'zgartirdi.

Toshkent bosib olingach, bosib olingen hududlarda 1865-yili Turkiston viloyati tashkil etildi. Chor Rossiyasining oldida navbatdagi asosiy vazifasi Buxoro amirligi bilan orani ochiq qilish edi. Turkiston viloyatini harbiy gubernatiri qilib tayinlangan general Cherniyayev 1866 yil yanvar oyida Buxoro amirligini bo'yundirish uchun unga qarshi e'lon qilinmagan urushni boshladi. Rus istilochilari Buxoro amirligiga qarshi ikki harbiy mavsumda - 1866 va 1868 yillarda amalga oshirdilar. 1866-yildagi bosqinchilik oqibatida amirlikning O'rtepa, Yangiqurg'on, Jizzax singari hududlar Rossiya tarkibiga qo'shib olindi. Rossiya imperatori Aleksandr II farmoniga kura 1867 yil 14 iyulda Turkiston harbiy okrugi va Turkiston general-gubernatirligi tashkil etildi. General-adyutant K. P. fon Koufman uziga berilgan vakolatlardan foydalangan holda, Buxoro amirligini taqdirini hal qilishga kirishdi. 1868 yil 1 may kuni Buxoro amirligi qushinlari bilan chorizm qushinlari urtasida Cho'ponota tepaligida jang buldi. Bu hujumga shaxsan general-governatori fon Koufman shaxsan uzi boshchilik qildi. Koufman 2-may kuni Samarqandni egalladi. Koufman zirabuloqda urushayotgan bir paytda Qarshi, Shahrисabiz va Kitob bekliklaridan kelgan qushinlar Samarqandda ozodlik quzg'alon kutarishdi. Kaufman bu xabarni eshitib zudlik bilan Samarqandga qaytadi, quzg'aloni qaytarish bahonasida minglab begunoh aholini qirib tashladi va qimmatbaho boyliklarni talashdi. Bu voqealardan so'ng chorasiz qolgan amir Muzaffar 1868 yil 23 iyunda Turkiston general-governatorlar fon Kaufman bilan sulk tuzildi bu sulk Rossiya imperiyasining vasaliga aylantirdi Buxoro amirligini. Bu sulga ko'ra buxoro vasal bulibgina qolmay Samarqand, Kattaqurg'on, Zarafshon daryosining yuqori oqqimidagi hududlardan ham ayrıldi. Amirlik yana qushimchasiga (500 ming so'm) 125 ming oltin tulashga va boshqa mamlakatlar bilan mustaqil aloqa urnatshdan maxrum etildi. Amirlikdan tortib olingen hududlar birlashtirilib Zarafshon okrugi tuzuldi, unga general-major Abramov boshliq etib tayinlandi. Bu yuqotishlar va teng bulmagan sulhlar xalqimizning yuqori qatlami boshchiligida norozilik boshlandi. Amirdan norozi kuchlar uni hokimiyatni boshqara olmaganlikda va amirlikning ancha qismini boy bergenlikda ayplashdi. Abdulmalik, Jurabek va Bobobek nafaqat bosqinchilarga shu bilan birga amir Muzaffarga ham qarshi harakat olib bordi. Amir Muzaffar endi bosqinchi ruslarga emas uzini vatandoshlariga qarshi Kaufman bilan birga harakat olib bordi. 1870 yilda Kaufmandan yordam olgan amir Muzaffar quzg'aloni kuch bilan bostirdi va taxtini saqlab qoldi. Buxoro bu voqealardan keyin Rossiya imperiyasiga qaram davlat

bulib qoldi[3]. Buxoro amirligining masalasi hal etilgach Rossiya uz etiborini Xiva xonligi yerlariga qaratdi. Kaufman 1873 yil baxorida 12 mingdan ortiq zabit va askarlar, 56 ta tup-zambaraklari bilan Xiva xonligiga qarshi bosqinchilik yurushini boshladi. Ayni paytda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek, Kavkaz okrugi qushinlari xam Xiva tomon yulga chiqishdi. Podsho umumiy qomondonlikni Kaufman zimasiga yukladı. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Rus qushinlariga qarshi chiga olmasligini bulsada ruslarga qarshilik kursata oldi. Amudaryo buylarida ruslar bilan qirg'inbarot janglar olib bordi. Ammo 1873 yil 18 may kuni Rus qushinlari Amudaryodan utib Hazoraspni egaladilar va Xivaga yaqin kela boshlashdi. Xiva shahri atrofidagi Qo'ng'iroq va Xujayli shaharlari, Mang'it qalasi zabt etildi va talandi. Istilochilar Xiva shahriga yaqinlashib kelishganda Muhammad Rahimxon II poytaxtni tashlab chiqishga majbur buladi. Bu vaziyatda Otajon Tura chiqadi va general-gubernator fon Kaufman huzuriga boradi. Kaufmandan shaharni vayron etmaslikni shahar taslim bulganligini bildiradi. Xiva shahri zabt etildi xonlik vasal davlatga aylantirildi yerlarini katta qismidan ayrild xazina talandi aholi uldirildi[4]. 1873 yil Xivaga yaqin yerda joylashgan Gandimiyon qishlog'ida Kaufman va Muhammad Rahimxon II uchrashuvi bulib utdiunda Xivaga 2 million 200 ming so'm tovon tulashi belgilab berildi. Endi Buxoro amirligi kabi Xiva Xonligi ham vassal davlatga aylantirildi. Kaufman Xiva xonligini masalasini hal qilgach uz etiborini Quqon xonligiga qarshi yurushga qaratdi. Endi Quqonni vassal qilish emas balki uni tarix sahnasidan butunlay uchirishni uz oldilariga maqsadini quyishdi. Quqon xonligini tugatish uchun yangi urush boshlashga tayorgarlik ko'ra boshlandi. Bu vaqtida Quqon xonligida hokimiyat uchun ichki kurash avjiga chiqadi. 1868 yil 13 fevraldag'i shartnomaga kura Rossiya imperiyasi bosib olgan hududlarni Quqon xonligi tan olishga majburlagan. Xudoyorxon shu shartnomani imzolagansha majbur bulgan chunki taxtni uz qulida malum vaqt saqlab qolish edi maqsadi. Bu yulda Xudoyorxon Kaufman bilan yaqinlashdi chunki u Qo'qon bilan Rossiyani bir davlat deb bilar edi. Bu esa Farg'onaga aholisini xonga nisbatan ishonchszilik bildira boshladi. 1873 yil Farg'onaga vodiysini quzg'alonlar qamrab oldi[3].

Kaufman xonlikdagi ichki kelishmovchilikdan foydalanib, uni batamom bosib olish uchun 1875 yil avgustda katta qushin bilan Quqon xonligiga yurush boshlaydi. Xonlikni bosib olishda generallar Skobelev, Golovachev, boshqa rus zobirlari qatnashishdi[4]. Nasridinbek, lashkarboshi Abdurahmon oftobachi bosqinchilarga taslim ular tomonga utib ketdilar. Shu hududda boshlangan Pulatxon boshchiligidagi quzg'alon ayovsiz bostirildi. Pulatxon tutub keltirilib dorga osildi safdoshlari ayovsiz jazolandi. Quzg'alonlar bostirilgach Imperator Aleksandr Iining maxsus farmoni bilan Quqon xonligi tugatildi va Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg'onaga viloyati tuzuldi. Farg'onaga Skobelev xarbiy gubernator etib tayinlandi. Skobelev tez orada Oloy vodiysini ham uz tasarufiga kiritdi. Uchala xonlikni xam asalasi xal etildi endi navbat Turkmanlar yashaydigan hududlarga qaratildi. Turkmanlar ham birin ketin buysundirildi va bu hududda Kaspiyorti viloyati tashkil etildi. Shunday qilib Rossiya imperiyasi 20 yil davom etgan qonli urush olib bordi va butun O'rta Osiyoni bosib oldi.

## XULOSA

Xalqimiz va davlatchiligimiz tarixida uchmas iz qoldirgan Chor Rossiyasi O'rta Osiyoni buysundirish va uni mustamlaka etish uchun olib borgan urushi va bu urushni xalqimiz va davlatchiligimiz tarixidagi urenini yoritishga etibor qaratdik. Chor Rosiyasi dastlab o'rta Osiyoga yurushlari uchun kerak bulgan sabablar nima uchun O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi uchun muhum hudud bulganligi haqida maqolamizda batafsil yoritdik. Chor Rossiyasi dastlab olgan hududlar O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya urtasida bahsli bulgan Qozoq juzlarini Imperiya tarkibiga qushib olishlari va buning natijasida Imperiya sarhadlari xonliklar chegarasi bilan tutashib ketishi va jahon sahnasida Imperianing mustamlakalarga qiziqishi ortib borish, Angliya bilan Osiyo qitasi uchun raqobatga kirishishi bularning barchasini sabab qilib keltirishimiz mumkun. Rossiya Imperiyasi uchun O'rta Osiyo kuchsiz va nochor qushni sifatida nomoyon buladi. Bu esa yangi hududlarga kengayishni va ulkan xomashyo izlayotgan Rossiya uchun juda qulay fursat edi. Jahonda bulayotgan uzgarishlar Rosiya imperiyasini Qirm urushida buyuk davlatlardan yengilishi va tobora Osiyoni ichki qismiga qarab kengayotgan Angliya Rossiya imperiyasini qurquvg'a solib quyadi. Buning ustiga AQSHda boshlangan fuqorolar urushi Rossiya

sanoati uchun muhum bulgan Paxtani kelishini tuxtatib quyadi. Rossiya imperiyasi bu muamoni bartaraf etishning chorasi O'rta Osiyon o'ziga maqsaq qilgan edi. Bundan yana bir maqsad Angliyaning tanobini tortib quyish ham edi. Agar Rossiya O'rta Osiyon egallasa u shu hududan turub Angliya uz hududi deb hisoblovchi Hindistonga tahdid solishni ham maqsaq qilgan edi. Rossiya O'rta Osiyon zabit etdi va uylagan deyarli barcha rejalariga erishdi. Imperiya hududi ancha kengaydi ulkan xomashyo bazasiga ega chiqdi va Hindistonga xaf solish ehtimoli bilan Angliyani o'ziga maqul bulgan chegaralarni urnatishga majburladi. Demak kurinib turubdiki O'rta Osiyo naqadar muhum hudud ekanligi balki juda katta boylikka egalik qilishi bilan utmish, bugun va kelajakda ham dunyo etiborini uziga jalb qilib turubdi.

## REFERENCES

1. Eshov B. J. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi – Toshkent. 2012.
2. Murtazaeva R. H. O'zbekiston tarixi –Toshkent. 2003.
3. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. I-qism – Toshkent. 2002.
4. Sodiqov H., Shamsudinov R., Ravshanov P., Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. I-qism – Toshkent. 2000.
5. Oblomurodov N., Xazratqulov A., Tolipov F., Tursunov N. O'zbekiston tarixi. – Toshkent 2011.
6. Muhammad Solih. Tarixi jadidai Toshkand. – “O'zbekiston”, 2009.
7. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar – Toshkent, "Sharq", 2000.
8. Berns A. Putestestvie v Buxaru – M.: 1850.
9. Юлдошева, Б. М. (2020). XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1 № 4).
10. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of Arab caliphate on formation of Bukhara urban culture. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 28-32.
11. Burxonov, S., Khamidov, O., & Yavmutov, D. (2023). Buxoro viloyatida sug 'oriladigan yerdan samarali foydalanish muammolari va ularni yaxshilash yo 'llari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 41(41).
12. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
13. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
14. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 34-39.
15. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржоновна Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
16. Yuldasheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA

- MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
17. Явмутов, Д. Ш. Бурхонов, Ж. & Каримова, К. (2023). ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ ҚҮЛЛАШДА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ ВА УНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ЖОРИЙ ҚИЛИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 2(10).
  18. Khamidov, O., Yavmutov, D. S., & Burkhanov, S. N. (2023). Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 431, p. 01056). EDP Sciences.
  19. Юлдошева Б. М. ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНинг БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, Бухоро давлат университети таянч докторанти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 46-51.
  20. Yuldasheva, B. M., & Islomova, S. J. qizi. (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszlosci*, 41, 132–135.
  21. Dilshod, Y., & Sardor, B. (2022). О ‘ZBEKISTONDA “YASHIL” IQTISODIYOTGA О ‘TISHI: ISTIQBOL YO ‘NALISHLAR VA USTUVOR VAZIFALAR. *Journal of new century innovations*, 10(2), 159-168.
  22. Yuldasheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
  23. Bibirajab Yo`ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O’rnii. *Miasto Przyszlosci*, 41, 424–429.
  24. Sh, Y. D. (2022). THE IMPORTANCE OF DEPOSIT BANKS IN COMMERCIAL BANKS. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYJURNALI*, 2(5), 14-17.
  25. Yuldasheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O’RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje*. 42, 9-13. Yuldasheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O’RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje*, 42, 9-13.
  26. Yuldasheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O’ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje*. 42, 205-208.